

Markaziy Osiyo tafakkurida islom falsafasining tadrijiy rivoji

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MARKAZIY OSIYO TAFAKKURIDA ISLOM
FALSAFASINING TADRIJIY RIVOJI**

**«ПОЭТАПНОЕ РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКОЙ
ФИЛОСОФИИ В МИРОВОЗЗРЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ»**

**“STAGED DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY
IN THE WORLDVIEW OF CENTRAL ASIA.**



**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY -NAZARIY
KONFERENSIYA**

Buxoro shahri, 2025-yil 15-may



А Н Н О Т А Ц И Я

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги кўмагида Бухоро давлат техника университетининг “Ижтимоий фанлар ва жисмоний маданият” кафедраси “Марказий Осиё фалсафий тафаккурида ислом фалсафасининг тадрижий ривожини” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжумани 2025 йил 15 май куни Бухоро шаҳрида ўтказилди. Халқаро анжуман “Ўзбекистон-2030” стратегиясида илгари сурилган устивор вазифалар ва тавсиялардан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорлари ҳамда 2025 йил 21 апрелдаги “Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”да фармонидан келиб чиққан вазифаларни ижросини таъминлаш, ёшларни ватанпарвар, маънавий жиҳатдан баркамол авлод этиб шакллантириш, янгича фикрлайдиган фуқароларни тарбиялаш, улар онгида Ватанга садоқат ва юртпарварлик ғояларини янада чуқурроқ сингдириш мақсадида ташкил этилди. Анжуманда Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари ижодида фалсафа ва ислом динининг ўзига хос уйғунлиги, Марказий Осиё мутафаккирларининг ислом фалсафаси ривожланишидаги ўрни, ислом фалсафасида табиатни асраш, атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, экологик масалаларнинг ёритилиши, тасаввуф намоёндалари ғоялари, етти пир меросини ўрганиш ва тарғиб қилиш “Зиёрат туризми”ни ривожлантириш омили эканлиги масалаларига оид тадқиқотлар муҳокама этилди. Анжуман тўпламида Италия, Россия Федерацияси, Тожикистон, Қозоғистон, Қирғизистон Республикалари ва Ўзбекистон олимлари ва тадқиқотчиларининг мақолалари chop этилган.

А Н Н О Т А Ц И Я

15 мая 2025 года в Бухаре кафедрой «Социальные науки и физическая культура» Бухарского государственного технического университета при поддержке Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан была проведена международная научно-теоретическая конференция на тему «Поэтапное развитие исламской философии в мировоззрении Центральной Азии».

Международная конференция организована в целях обеспечения реализации задач, вытекающих из приоритетных задач и рекомендаций, изложенных в Стратегии «Узбекистан-2030», Постановлениях Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и популяризации древних письменных источников», от 26 марта 2021 года «О коренном совершенствовании системы духовно-просветительской работы» и Указе «О мерах по дальнейшему укреплению гарантий права граждан на



Қадриятлар ҳам глобаллашув, фуқаролик жамияти ривожидан намоён бўлиши кўламини кенгайтириши натижасида турли моделлар шаклида ўз функцияларини қуйидаги тартибда бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улў халқнинг иши ҳам улў, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. –Тошкент.: Ўзбекистон. 3-том. 2019.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улў халқнинг иши ҳам улў, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. –Тошкент.: Ўзбекистон. 3-том. 2019.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2017 йил 19 сентябрь.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. – Тошкент.: Нил-Нашр. 2019.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 10-жилд. 2005.
6. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент.: Шарқ 2004.

**AMIR HAYDAR MAKTUBLARIDA IQTISODIY MASALALARNING
YORITILISHI**

**Hamroyev Asliddin Umed o‘g‘li-BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi o‘qituvchisi**

“Maktuboti Amir Haydar” Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasining uchinchi vakili Amir Haydar (1778-1826) ning davlatning turli mansabdorlariga, asosan, devonbegi, mehtar kabilarga yozgan turli yillardagi maktublar yig‘indisidan iborat. Maktublar mavzusi o‘sha davr davlat boshqaruviga aloqador sohalarni qamrab olgan. Ularda navkarlik, qozilik, vaqf kabi ko‘plab o‘sha davr masalalari, qarzdorlik, zakot olish, soliqlar va turli yig‘imlar haqidagi ko‘rsatma va topshiriqlar ham keltirilgan bo‘lib, mazkur maktublar mazmunidan jamiyatda kechayotgan barcha jarayonlarga davlat rahbarining pozitsiyasi namoyon bo‘lgan.

Maktublarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, har bir maktub davlatning u yoki bu mansabdoriga yo‘llangan bo‘lib, unda Amir Haydarning davlat va jamiyat ishlariga shaxsaniy munosabati aks etgan va ular farmoyish, buyruq, ko‘rsatma, nasihat, rag‘bat, qaytariq kabi mazmunlarni o‘zida jamlagan.

Mazkur tezisda biz Amir Haydarning jamiyat va davlat iqtisodiy hayotiga aloqador bo‘lgan mazmundagi ayrim maktublarini ko‘rib o‘tamiz.



Amir o'sha paytda mehtar lavozimida ishlab turgan Muhammad Hakimbiyga maktub yozib, amirlikdagi ayrim elatlardan zakot olmaslik to'g'risida ko'rsatma beradi. Maktub quyidagicha:

“Amirlikning izzatga loyiq, o'z o'rniga ega, xoqonning ishonchli va davlatxoh kishisi bo'lgan Muhammad Hakimbiy Mehtarga.

Xisravona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilingkim, biz Qarshida bo'lgan vaqtlarda arablardan **joriy zakotlarini** olmas edik. Eshitildiki, hozir Qultigi, Qavola Mahmudiy, O'bagiy va To'pchagi Buxoriy arablaridan zakot olishayotgan ekan. Shu haqda sizni ogohlantirib, aytamizki, yuqorida nomlari kelgan arablardan olingan zakotlarni qaytarib bering. Zero, mazkur arablarning qo'ylaridan bu yoqda zakot olindi”¹.

Yuqoridagi maktub mazmunidan quyidagi taxminiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Qarshida istiqomat qilib turgan Qultigi, Qavola Mahmudiy, O'bagiy va To'pchagi Buxoriy arablari amirlikning obro'-e'tiborli va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan elatlar hisoblangan.

2. Amir Haydar Qarshini boshqargan paytida siyosiy muvozanatni saqlashda ularga suyangan.

3. Mazkur elatlar kambag'al bo'lib, ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida faqat qo'ylaridan zakot olingan.

Amir Haydar har qanday iqtisodiy omilni e'tiborsiz qoldirmagan hukmron bo'lgan. Negaki, maktublarda biz uchun kichik ko'ringan masalalar uning nazdida katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, “Maktubot”ning 40-maktubida Temurxo'ja jamoasidan olinayotgan soliqlarda adolat mezonini buzilayotganidan xabar topgani va bunga yo'l qo'yilmasligini talab qilib yozganliginining guvohi bo'lamiz.

“Amirlikning panohi, izzatga loyiq, ishonchli ustun, qadrga ega Muhammad Hakimbekbiyga.

Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarkim, Abrondagi Temurxo'ja jamoasining arz qilishiga ko'ra solig'larning ayrimlarini ortiqcha, ayrimlarini kam olayotgan ekanlar. Buyuringkim, qaroshumur qilsinlar va har kim o'zining qarosiga yarasha solig'ini to'lasin. Bir-birlariga sitam qilmasinlar. Assalomu alaykum”².

Mazkur maktubning yana bir e'tiborli jihati shundaki, Amir Haydar xalqning iqtisodiy farovonligi davlat barqarorligining bosh omili ekanligini yaxshi

¹ Мактуботи Амир Ҳайдар. № АР-5412, 18-мактуб, 9-бет. А.Болтаев таржимаси.

² Мактуботи Амир Ҳайдар. № АР-5412, 40-мактуб, 17, 18-бетлар. А.Болтаев таржимаси.





tushungan. Ayniqsa, soliqlarni yig'ishda mavjud tartibotlardan chetga chiqilsa, bu xalqning noroziligiga sabab bo'ladi. Belgilangan soliq miqdoridan oshiqcha olish esa birinchi navbatda adolatsizlik, qolaversa, xalqqa zulm ham hisoblanadi. Bu kabi holatlar zudlik bilan bartaraf etilmasa, davlat asoslari yemirilishni boshlaydi. Shuning uchun ham maktubda adolat mezoni sifatida "qorashumur", ya'ni "jon boshiga" tartibida soliq olish amr qilingan. Bunday tartibni joriy qilish to'g'risidagi buyruq, Amir Haydarning muammoli masalalarning yechimini ustalik bilan tezda topa oladigan, salohiyatli hukmdor bo'lganligini ko'rsatadi.

Maktublarning yana birida devonbegiga navkarlarga tarqatish uchun mablag' yuborilayotgani bayon qilinib, uni qanday tartib taqsimlash ham ko'rsatib o'tilgan. Maktub quyidagicha:

"Amirlikning izzatga loyiq, davlatning ishongan kishisi Muhammad Hakimbiy Devonbegiga.

Podshohona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilingkim, 500 nafar shogirdpesha, 900 nafar mang'it kishisi, 100 nafar saroy kishisi, ya'ni ming kishiga, jami 1500 kishiga, har biri uchun **ikki tildan 3000 tillo** jo'natyapmiz. Bu uch ming tilloni navkarlarga tarqating. Xabarqo'rg'on va G'arjobga yakka ilg'or qo'shindan qancha kerak bo'lsa, navbat bilan shuncha yuborib turing. Bastaxonga ham navbat bilan 15-20 nafar ilg'or berib turing..."¹

Maktub o'zida o'sha davr navkarlarining iqtisodiy ahvoliga ishora qiladi. Berib yuborilayotgan tilla tanga miqdori bu moyanani anglatmaydi. Agar moyana bo'lganida maktubda aniq qilib aytilgan bo'lar edi. Demak, bu pullar navkarlarni rag'batlantirish uchun qo'shimcha yuborilayotgan mablag' bo'lishi mumkin.

Navkar oladigan ikki tilla tanganing qiymati to'g'risida ayrim ma'lumotlarga murojaat qilsak, ularning iqtisodiy ahvoli haqidagi tasavvurlarimiz kengayadi.

Ma'lumki, Amir Haydarning otasi Shohmurod davrida pul islohoti o'tkazilgan va avvalgi qadri pastroq bo'lgan, turli ma'danlar aralashmasidan tayyorlangan oltin va kumush tangalar o'rniga sof oltin va kumushdan tangalar zarb qilinib, pulning qiymatini ko'tarishga erishilgan.

Amir Shohmurod zarb qilgan tilla tangalarning old tomoniga "Rahmat bod bar Ma'sum G'oziy" ("Ma'sum G'oziyga, ya'ni Shohmurodga rahmatlar bo'lsin"), orqa tomoniga esa "Zarbi Buxoroi sharif" ("Buxoroi sharifda zarb qilingan") deb yozilgan va ikki tomonida zarb qilingan sana qo'yilgan. Bu tartibda tilla tanga zarb qilish mang'itlarning keyingi sultonlari davrida ham saqlanib qolgan va ikki tomondagi sana orqali qaysi hukmdor hukmronligi davrida zarb qilinganligini

¹ Мактуботи Амир Ҳайдар. № АР-5412, 7-мактуб, 4-бет. А.Болтаев таржимаси.





bilish mumkin bo'lgan. Tilla tangalarning probasi 958, diametri 23 mm bo'lgan¹. Albatta bundan yuqori probali tilla tangalarning qiymati juda yuqori bo'lgan.

Amir Haydar otasi kabi ta'lim tizimining himoyachilaridan biri bo'lgan. "Maktubot"dagi bir maktub uning mamlakatdagi yuzlab madraslarning holidan muntazam xabardor bo'lganligini ko'rsatadi. Bu maktub ham devongi nomiga yuborilib, unda Devonbegi madrasasining vaqf yerlaridan tushadigan bug'doy hanuz berilmaganligi bayon qilinib, devonbegiga uni oldirib berish vazifasi yuklangan:

"Amirlikning izzatga loyiq, qadrga ega, ishonchli kishisi Muhammad Hakim Devonbegiga.

Xisravona marhamatlardan sarafroz bo'lgan holda bilsinlarkim, Devonbegi madrasasiga tegishli bo'lgan vaqf yerlaridan ayrimlari zimmasidagi **g'allani hali** bermagan. Mutavalli yuborib, berilmagan mazkur g'allani o'sha yerlardan mutavalliga oldirib berishingiz lozim. Assalomu alaykum"².

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, mavzuga aloqador bo'lgan bu kabi maktublar "Maktuboti Amir Haydar"da juda ko'p bo'lib, ular alohida tadqiqotni talab qiladi. Ularni o'rganish o'z navbatida burungi davlatchiligimiz iqtisodiy asoslari qanday bo'lganligi, ularning ijobiy yoki salbiy jihatlarini ilmiy-tarixiy tahlil qilish imkonini beradi.

«ЧИБИРДОН ОТА» ТАРИХИЙ-МАЪРИФИЙ РИСОЛАСИ ҲАҚИДА

Раҳмонов Асқад – Бухоро вилояти Жондор тумани бош имом хатиби



Аллоҳга минг қатла шукрлар бўлсинким, Мустақиллик йилларида жонажон юртимиз, жумладан улуғ аجدодларимиз тарихини ўрганиш, ҳаёти ва фаолиятига ҳақиқий илмий баҳо бериб, уларнинг буюк хизматларини халқимизга етказиш борасида жуда катта ишлар амалга оширилди ва бу ишлар изчиллик билан давом эттирилмоқда.

Аллоҳ таоло фазл ато этган жойлар ер юзининг кўрки бўлиб, бундай ўлкалар руҳий тарбия ва таълим берувчи муқаддас маъво-лардан саналади. Улар асрлар оша руҳият дунёсининг нақши бўлиб келаётган азиз авлиёлар, олиму уламоларнинг сўнгги манзиллари сифатида ҳам қадрлидир.

Манбаларда таъкидланишича, ислом оламининг уламолари, алломалари, шайхлари, имомлари, валийларининг олтмиш фоизи Марказий

¹ Болтаев А. Бухоронинг тилла тангалари // "Бухоро оқшоми" газетаси 2002.

² Мактуботи Амир Ҳайдар. № АР-5412, 19-мактуб, 9, 10-бетлар. А.Болтаев таржимаси.



SHARQ MUTAFAKKIRI NARSHAXIYNING IJODIDA FALSAFA VA ISLOMNING BETAKROR UYG'UNLIGI. <i>Kalandarova F.A.</i>	382
TURKISTON VA OZARBAYJON JADID MUTAFAKKIRLARI FAOLIYATIDAGI UYG'UNLIK MASALASI. <i>Haqqulov N.Q.</i>	385
ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ. <i>Хасанова З.Д.</i>	389
HAKIM DAVOIYNING "FAVOYID AL-INSON" ASARIDA SALOMATLIK FALSAFASI. <i>Rajabov O.A.</i>	391
AMIR SHOHMURODNING TASAVVUF TA'LIMOTIDA TUTGAN O'RNI. <i>Subxonova N.A.</i>	394
YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM- TARBIYANING O'RNI VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q.</i>	399
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIY-MA'RIFIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHATLARI. <i>Qaxxorova S.Q., Muxiddinova M.</i>	403
DISRUPTION AS A CATALYST FOR RENEWAL: HISTORICAL PERSPECTIVES ON COLLAPSE AND INNOVATION. <i>Kodirova M.G.</i>	409
ИСЛОМ ДИНИДА АТРОФ МУХИТГА БЎЛГАН АКЦИОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР. <i>Фуломов А.Б.</i>	412
AMIR HAYDAR MAKTUBLARIDA IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI. <i>Hamroyev A.U.</i>	415
«ЧИБИРДОН ОТА» ТАРИХИЙ-МАЪРИФИЙ РИСОЛАСИ ҲАҚИДА. <i>Раҳмонов А.</i>	418